

## O'z ustiga ishlash so'z ustida ishlashdan boshlanadi

Joriy yilning 4-fevral kuni Institutimizning 3-Talabalar turar joyida "Liderlik faoliyatida so'z san'atining o'rni" mavzuida jonli davra suhbat bo'lib o'tdi. Unda institutimiz matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov mavzu yuzasidan jonli suhbat uyushtirdi. Savol va javoblar jarayonida o'z bilimi va topqirligi bilan ajralib turgan Maftuna Rahmon qizi ustoz qo'lidan kitob yutib oldi. Kaykovusning "Qobusnomा" asarida keltirilgan "Insondagi hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir" degan hikmatini atroficha sharhladi. Davra suxbatida 1-2-3-4-Talabalar turar joyi qavat sardorlari, Talabalar turar joyi kengashi sardorlari, Pedagog-tarbiyachilar qatnashdilar. Uchrashuvni Talabalar turar joylari kengashi raisi Saidahmedov Jahongir tashkillashtirdi. Tadbir nihoyasida psixolog-tarbiyachilar ustozga qiziqarli va maroqli suhbat uchun minnatdorchilik bildirishdi.



TIQXMMI matbuot xizmati